

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA QISQARTMALAR TASNIFI

G.M.Ibragimova, f.f.f.d., dots. ADChTI

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi so‘z yasashning samarali usullaridan biri bo‘lgan abbreviaturalar va ularning turlari masalasi yoritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *abbreviation, qisqartma, akronim, initial, kesilma so‘z.*

Turli tizimli tillar hisoblanmish ingliz va o‘zbek tillarida abbreviatsiya so‘z yasashning mahsuldor usullaridan sanaladi. Bu ikki tilda abbreviatsiya bir usul hisoblansa-da, biroq bir biridan ayrim o‘rinlarda farq qiladi. Abbreviatura usulining ikki tildagi umumiy jihati shuki, bu usul bilan qisqartma otlar yasaladi. Bu usulning umumiy jihati har ikki tilda ot birikmannng komponentlaridan ma‘lum qismlari olinib biriktiriladi va shu yo‘l bilan qisqartma ot hosil qilinadi.

Masalan: O‘zbek tilida: BMT - *Birlashgan millatlar tashkiloti*, SamDU - *Samarqand davlat universiteti*, ADChTI – *Andijon davlat chet tillari instituti*; ingliz tilida: USA – *United States of Amerika*, DIY - *Do-it-yourself*, TMI – *Too much information* kabi.

Bunday qisqartmalar turli tashkilot, muassasa nomlari, shuningdsk, ijtimoiy-siyosiy va ilmiy terminlar doirasida, hozirgi kunda insonlarning muloqotida ham keng qo‘llanilmoqda. Qisqartma so‘z yasash usuli rus tilidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida XX asrning birinchi yarmidan qo‘llana boshladi.

Ingliz tilidagi qisqartmalar 1) abbreviatura, 2) akronim, 3) initial, 4) portmanteaus (ikki so‘zning birlashmasidan hosil bo‘ladi, masalan *motel* so‘zi a motor hotel birikmasining birlashmasidan yasalgan), 5) clipped words (so‘zni qirqib olingan shakli - kesilma (*January* - “*Jan*”)), 6) contractions (apostrof bilan qisqartirilgan so‘zlar *won’t*, *should’ve*, *couldn’t’ve*)

Ingliz tilidagi kesilma (clipped) qisqartmalar so‘zni qaysi tomonidan qisqartirilayotganiga qarab qo‘yidagi turlarga ajratiladi:

1) soʻz boshidan *car (from motor-car), phone (from telephone), copter (from helicopter)*, 2) soʻz oxiridan *ad (from advertisement), lab (from laboratory), mike (from microphone)*, 3) soʻz oʻrtasidan *maths (from mathematics), pants (from pantaloons), specs (from spectacles)*, 4) soʻz boshi va oxiridan *flu (from influenza), tec (from detective), fridge (from refrigerator)*.

Oʻzbek tilidagi qisqartma otlar oʻz xususiyatiga koʻra ikki turga boʻlinadi: 1) ingliz tilidan oʻzlashgan qisqartmalar; 2) oʻzbek tilining oʻzida hosil qilingan qisqartmalar.

Ingliz tilidan oʻzlashgan qisqartmalar ingliz tilida qanday boʻlsa, shundayligicha qabul qilingan boʻladi. Biroq, koʻpchilik qisqartmalar tarjimai bilan olinganda ham soʻz birikmasi tarzida oʻtishi, yoki tilni oʻsha qisqartma shakliga ega boʻlishi kuzatiladi. Masalan: *USA – United States of Amerika – AQSh – Amerika qoʻshma shtatlari*.

Aksariyat qisqartmalarning har bir komponenti oʻz holiga keltirilsa, ingliz tiliga xos soʻz birikmasi (turgʻun ot birikma) hosil boʻladi. Demak, ingliz tilidan oʻzlashgan qisqartma otlarning ekvivalenti ingliz tiliga oid ot birikmalar holida boʻladi. Oʻzbek tilining oʻz materiali asosida yaratilgan qisqartma otlarning ekvivalenti oʻzbek tiliga xos ot birikmalar boʻladi:

*OʻzLiDeP - Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasi, ToshMI — Toshkent meditsina instituti* kabi.

Oʻzbek tilida ham qisqartib soʻz yasashda birikma komponentining qisqartirilishi bir necha xil koʻrinishda boʻladi. Asosiy koʻrinishlari quyidagilar:

1. Birikma komponentlarining bosh harfigina olinib, qisqartma ot hosil qilinadi: *GDR, BMT, AQSh*.

2. Birinchi soʻzning bosh qismi, qolgan soʻzning bosh harfi olish bilan: *AnDU, ToshDU, ToshMI*.

3. Qisqartma ot birikma komponentlarining bosh qismidan tuziladi: *Narxoz, Inyaz*.

4. Qisqartma ot soʻzning bosh qismi va butun soʻzdan tuziladi: *raygaz* kabi. Qisqartma soʻzlarning koʻrsatilgan yasash modellari ham boshqa tillardan olingan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. R.S.Ginzburg, S.S.Khidekel and others. A course in modern English Lexicology. Second edition. Revised and Enlarged. – Moscow: Vysšaja škola, 1979. – 269 p. 190-191
2. Ш.Шоабдурахмонов, М.Асқарова ва бошқ. Ҳозирги ўзбек тили. I қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 446 б.